



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 27-fevral

93-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 24-fevralda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Uzagrostar xolding” kompaniyasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ–57-son qarori ijrosi haqida”gi 87-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi “Tomorqa yer egalari va dehqon xo‘jaliklari faoliyatida zamonaviy tashkiliy tizimni joriy qilish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-22-son Farmoni hamda “Uzagrostar xolding” kompaniyasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ–57-son hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 24-fevraldagi 87-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 24-fevraldagi 87-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosi rahbarlik va ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi PQ–57-son qarori bilan: Tomorqa yer egalari va dehqon xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish bo‘yicha kengash (keyingi o‘rinlarda – Kengash) va “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ boshqaruv organlarining quyidagi takliflariga rozilik berilganligi:

a) “Uzagrostar xolding” kompaniyasini (keyingi o‘rinlarda – Xolding kompaniya) mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklida tashkil etish;

b) “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ tashkiliy tuzilmasiga alohida direktor o‘rinbosari lavozimini kiritish va unga Xolding kompaniya faoliyatiga rahbarlik qilish vazifasini yuklash;

d) tashqi va ichki bozorlarda talab yuqori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari kesimida bazaviy va qamrab olinadigan tumanlarni belgilash va ushbu hududlardagi mahallalarda mahsulot yetishtirishning ixtisoslashuvini chuqurlashtirish bo‘yicha Xolding kompaniya muassisligida ixtisoslashgan kompaniyalarni (keyingi o‘rinlarda – ixtisoslashgan kompaniyalar) 1-ilovaga muvofiq tashkil etish. Bunda:

bazaviy tumanlar ixtisoslashgan kompaniyalarning asosiy faoliyati uchun markaz bo‘lib hisoblanadi; qamrab olinadigan hududlarda belgilangan navlardagi mahsulotlarni yetishtirish, saqlash, qayta ishlash, qadoqlash va tashish bilan bog‘liq innovatsiyalar, yangi texnologiyalar va yondashuvlarni tarqatish va joriy etishni kengaytirish nazarda tutiladi;

dastlabki bosqichda bazaviy tumanlarda ishlarni boshlash va ixtisoslashgan kompaniyalarni tashkil etishga tayyorgarlik ko‘rish maqsadida Xolding kompaniyaning tegishli hududdagi yuridik shaxs bo‘lmagan loyiha ofislari tashkil etilishi mumkinligi;

“Uzagrostar xolding” kompaniyasining hamda uning muassisligida tashkil etiladigan ixtisoslashgan kompaniyalarning asosiy vazifalari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi; shunday tartib o‘rnatilganki, unga ko‘ra aholi tomorqalarida va dehqon xo‘jaligi yer maydonlarida mahsulot yetishtirish bo‘yicha ixtisoslashuvni rag‘batlantirish maqsadida quyidagi moliyaviy qo‘llab-quvvatlash instrumentlari joriy etilganligi, bunda:

a) Agrosanoatni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi hisobidan:

uzum ko'chatini shpalerga o'tkazishga har bir shpaler uchun 15 ming so'mgacha subsidiya beriladi; tomorqadagi bog'larni yangilash uchun "in-vitro" ko'chat sotib olish xarajatining 50 foizi qoplab beriladi;

b) Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan 2025-yilda meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish va ularning xaridi uchun ajratiladigan imtiyozli kreditlarga 1 trillion so'm yo'naltirilishi;

belgilanishicha, Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi resurslari hisobidan meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun kreditlar tijorat banklari orqali 14 foiz stavkada (shundan 5 foiz bank marjasi) sug'urta polisi va 30 foizlik garov ta'minoti asosida ajratilishi;

2025-yilning 1-martidan boshlab qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalari ijara huquqini elektron onlayn auksion savdolari orqali sotishdan tushgan mablag'larning 10 foizi respublika budjetiga o'tkaziladi va maqsadli ravishda aholi tomorqalarida va dehqon xo'jaligi yer maydonlarida mahsulot yetishtirish bo'yicha ixtisoslashuvni chuqurlashtirish tadbirlariga yo'naltiriladi. Bunda:

respublika budjetiga tushgan mablag'lar "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJga davlat ulushini oshirish uchun yo'naltiriladi va maqsadli ravishda Xolding kompaniya va uning muassisligidagi ixtisoslashgan kompaniyalar faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun sarflanadi;

"Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJning ustav fondida davlat ulushini oshirish hisobiga qo'shimcha chiqariladigan va joylashtiriladigan aksiyalar bilan amalga oshiriladigan birjadan tashqari barcha bitimlar bo'yicha "Fond bozorining axborot resurs markazi" DUKning Yagona dasturiy texnik majmuasi orqali ko'rsatiladigan xizmatlari uchun haq undirilmasligi;

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga dehqon xo'jaliklari va aholi tomorqalari bilan bog'liq qo'shimcha vazifa va funksiyalar yuklanishi munosabati bilan O'zbekiston fermerlari kengashining 23 ta shtat birligini maqbullashtirish hisobiga Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi markaziy apparatiga 10 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda viloyatlar kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmalariga 1 tadan 13 ta shtat birligi ajratilishi;

Xolding kompaniya "Biznesni rivojlantirish banki" ATBga tegishli Toshkent shahri Yunusobod tumani Bog'ishamol ko'chasi 282-uy manzilidagi binoda bepul foydalanish huquqi asosida joylashtirilishi;

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bazaviy tumanlarda ixtisoslashtirilgan kompaniyalarning faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan bino-inshootlar ajratilishini ta'minlashi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov